



## BUDJET TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Hamroyeva Sevinch Hamroyevna**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti  
Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 2-kurs talabasi

hamroyevasevinch1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7677002>

Anotatsiya. Ushbu maqolada Byudjet tashkilotlari buxgalteriya balansining mazmuni, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari, buxgalteriya hisobi schyotlari, ularning tuzilishi va turkumlari, buxgalteriya tashkilotlarida buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan hujjatlar, buxgalteriya hisobining shakllari haqida tahlil olib borilgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini rivojlantirish va unda raqamli iqtisodiyot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirish haqida takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish so'zlar. Budjet mablag'lari, buxgalteriya hisobi, smeta xarajatlari, buxgalteriya hisobining usullari, g'azna ijrosi, "Yo'riqnoma 2169", xo'jalik operatsiyalari

Abstract. This article analyzes the content, functions and characteristics of the balance sheet of budget organizations, accounting accounts, their structure and categories, documents used in accounting in accounting organizations, forms of accounting in budget organizations. Development and accounting of budget organizations. proposals for implementation using economic systems have been developed.

Key words. Budget funds, accounting, estimated costs, methods of accounting, treasury execution, "Instruction 2169", business operations

Kirish. Byudjet tizimi ko'p tarmoqli tizim hisoblanib, unda byudjet tashkilotlari alohida ahamiyatga ega. Byudjet tashkilotlari davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish maqsadida belgilangan tartibda byudjet mablag'lari hisobiga saqlab turiladigan muassasadir.

Byudjet tashkilotlari davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar va byudjetdan tashqari mablag'lar tushumlari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi hamda ushbu mablag'lar hisobiga belgilangan tartibda xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu sohani istiqboli haqida mamlakatimiz prezidenti ta'kidlab o'tganlaridek "Iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, eng avvalo, iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog'liqdir" deb ta'kidlab o'tganlar.





Mamlakatimizda budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida ga'znachilik tizimining joriy qilinishi obyektiv zarurat bo'lib, mazkur tizim bugungi kunda o'zining s amarasini amalda ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida g'azna ijrosi joriy qilindi, byudjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarni moliyalashtirishning byudjetdan tashqari manbalariga alohida e'tibor qaratilmoqda, hisob va hisobot tizimi zamonaviy axborot tizimlari joriy qilindi.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Byudjet tashkiloti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti. Byudjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobito'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining uslubiy ko'rsatmalariga hamda boshqame'yoriy huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil qiladilar. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, zarur hollarda, o'zlarining tizimidagi byudjet tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida ko'rsatmalar ishlab chiqarishlari mumkin. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi – tashkilotlarga daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hamda ularning tashkil topish manbalarining harakati va holatini o'rganish, nazorat qilish, boshqarish maqsadida byudjet ijrosidagi axborotlarni shakllantirish tizimidir. Budget tashkilotlarini boshqa ishlab chiqarish xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlardan ajralib turuvchi asosiy farqlari bu ularning davlat tomonidan moliyalashtirilishi hamda davlat belgilab bergan funksiyalarini bajarishidir.

Tahlil va natijalar

Buxgalteriya hisobi – ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan tashkilot va muassasalar, tashkilotlar va muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat. Budget tashkilotida buxgalteriya hisobining predmeti –

bu budget mablag'lari evaziga berilgan smeta xarajatlarining to'g'ri sarflanishi, o'z vaqtida rasmiylashtirilishini amalga oshirish va buxgalteriya tamoyillari, bel





gilagan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida uzluksiznazoratni amalga oshirish pirovardida hisobotlar tayyorlanishi hamda taqdim etilishini o'rganishdan iborat.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi hisob kitob ishlarini davlat tomonidan chiqarilgan tartib qoidalar doirasida bajarilgan ishni to'g'ri tashkil etish va foydalanuvchilarni o'z vaqtida aniq buxgalteriya ma'lumotlari bilan ta'minlashdan iboratdir.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifasi bo'lib buxgalteriya hisobi hisob

varaqlarida rasmiylashtiriladigan ma'lumotlarni to'g'ri va aniq aks ettirish, ularni pulda ifodalash, smeta ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, qonun ustuvorligini buxgalteriya hisobi hujjatlarida ko'rsata bilish, buxgalteriya hisob varaqlarida

keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlab, pirovardida natijada hisobotlar yozish tushuniladi. Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari va tamoyillaridan kelib chiqib buxgalteriya hisobining usullarini sanab o'taman:

- 1) hujjatlashtirish;
- 2) baholash;
- 3) kalkulyatsiyalash;
- 4) inventarlash;
- 5) ikki yoqlama yozuv;
- 6) hisobvaraqlar va ularda muomalalarni aks ettirish;
- 7) balans;
- 8) hisobotlar. Budjetlarning g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi bo'yicha muomalalar Davlat budjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining g'azna usuliga asoslangan. Budjet tashkilotlari g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasidagi hisob varaqlarda yuritiladi. Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari bo'lib: buxgalteriya hisobini 2 yoqlama yozish usulida yuritish; uzluksizlik, xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; ishonchlilik; hisoblash; ehtiyotkorlik; ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi; hisobotning betarafligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozish usuli bilan yuritish prinsipi-byudjet tashkilotlarida xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish asosida ro'yxatga olib borish kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozish tizimi aynan bir operatsiyaning summasini bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobining ikki schyotida –birining debetida va boshqasining kreditida aks ettirishidan iborat bo'ladi.





Buxgalteriya hisobining uzluksizlik prinsipi byudjet tashkiloti doimiy faoliyat ko'rsatadigan va noma'lum uzoq muddatgacha o'z faoliyatini davom ettiradigan bo'lishini hamda buxgalteriya hisobini yuritish muddati byudjet tashkilotining faoliyat ko'rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini bildiradi.

Xo'jalik operatsiyalarini aktivlarni va passivlarning pulda baholanishi prinsipi barcha xo'jalik operatsiyalari, hodisalar, aktivlar va passivlar yagona, bir turdagi pul bahosida o'lchanilishi kerakligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida milliy pul o'chovi bo'lib so'm va uning qismi tiyin hisoblanadi.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi prinsipi aktivlar va majburiyatlarning asosiy baholanishi ularning tannarxi yoki sotib olingan qiymati bo'lishini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni tashkilot rahbari amalga oshiradi. Rahbar ichki hisob va hisobot tizimining ishlab chiqilishini, xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibini, to'liq va aniq buxgalteriya hisobi yuritilishini, hisob hujjatlarining saqlanishini, tashqi foydalanuvchilar uchun hisobot tayyorlanishini hamda hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashi shart.

Byudjet tashkilotining rahbari: byudjet tashkilotida buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga; hujjatlarni rasmiylashtirish, hujjatlarni va ma'lumotlarni hisobga olish uchun taqdim etish masalalari bo'yicha bosh buxgalterning talablarini, hisobga aloqasi bo'lgan tashkilotning barcha tarkibiy bo'limlari va hodimlari tomonidan bajarilishini ta'minlashga mas'uldir. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi "Yo'riqnoma-2169"ga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritishning memorial order shaklida olib boriladi. Buxgalteriya hisobining tezkorligini va ishonchligini ta'minlash uchun hujjat ma'lum xo'jalik operatsiyasini tavsiflaydigan ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Har bir hujjat o'zining tayinlanishiga to'la javob berishi va yuridik kuchga ega bo'lishi uchun u ma'lum minimum ko'rsatkichlarga (rekvizitlarga) ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich hujjatning ko'rsatkichlari (rekvizitlar) - bu hujjatlarda qayd qilingan xo'jalik operatsiyasini tavsiflaydigan va unga yuridik kuch beradigan ko'rsatkichlardir. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi-byudjet tashkilotining operatsiyalarini joriy buxgalteriyac hisobi uchun tayinlangan va ma'lum tartibda raqamlangan buxgalteriya hisobi uchun tayinlangan va ma'lum tartibda raqamlangan buxgalteriya hisobining birinchi va ikkinchi tartibli subschyotlarining tizimga solingan ro'yxatidir.

Xulosa va takliflar.

